

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI**  
**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

“TASDIQLAYMAN”

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
universiteti rektori S.Safoyev

---

2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_

**BESH MUHIM TASHABBUS MARKAZI**

**N I Z O M I**



*JIDU Ma'naviyat va ma'rifat kengashi  
majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan.  
2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ -sonli bayonnoma.*

**TOSHKENT – 2026**

## **ABSTRACT OF THE REGULATION ON THE CENTER OF FIVE IMPORTANT INITIATIVES**

This Regulation establishes the legal and organizational framework for the **Center of Five Important Initiatives** at the University of World Economy and Diplomacy. It defines the Center's objectives, key functions, and responsibilities, as well as qualification requirements for its management and staff. Developed in accordance with national legislation on youth policy and higher education, as well as the University's internal regulations, the document positions the Center as a key structural unit aimed at fostering students' personal development and social engagement.

In accordance with the Regulation, the Center promotes the implementation of the Five Important Initiatives by organizing activities that enhance students' interest in culture, arts, sports, information technologies, reading, and vocational skills. It supports the development of students' talents, encourages a healthy lifestyle, and contributes to the effective organization of their free time. The Center also coordinates educational and awareness-raising initiatives, including events, competitions, and projects, while fostering cooperation with academic staff, public figures, and external partners.

The Regulation further defines the Center's authority to organize and monitor initiative-related activities, propose student projects and development programmes, and support active and talented students through incentives and opportunities. It also outlines responsibilities related to planning, reporting, and ensuring the effective implementation of assigned tasks. The Regulation enters into force upon approval and serves as a normative basis for strengthening youth engagement and promoting the values of the Five Important Initiatives within the University.

## **АННОТАЦИЯ ПОЛОЖЕНИЯ О ЦЕНТРЕ ПЯТИ ВАЖНЫХ ИНИЦИАТИВ**

Настоящее Положение определяет правовые и организационные основы деятельности Центра пяти важных инициатив Университета мировой экономики и дипломатии. В документе устанавливаются цели, задачи, функции, права и обязанности Центра, а также квалификационные требования к его руководителю и сотрудникам. Положение разработано в соответствии с законодательством Республики Узбекистан в сфере молодежной политики и высшего образования, а также внутренними нормативными актами университета и определяет Центр как важное структурное подразделение, направленное на всестороннее развитие студентов.

Согласно Положению, Центр обеспечивает реализацию пяти важных инициатив, направленных на развитие интереса молодежи к культуре, искусству, спорту, информационным технологиям, чтению и профессиональным навыкам. Он способствует раскрытию талантов студентов, формированию здорового образа жизни и эффективной организации их свободного времени. Центр организует различные мероприятия, конкурсы и проекты, а также развивает сотрудничество с преподавателями, общественными деятелями и внешними партнёрами.

Положение также закрепляет право Центра организовывать и контролировать мероприятия, выдвигать предложения по поддержке студенческих инициатив и проектов, а также поощрять активных студентов. Одновременно определяются обязанности по планированию, отчётности и обеспечению качественного выполнения поставленных задач. Положение вступает в силу с момента утверждения и служит нормативной основой для активизации молодежной политики в университете.

# **BESH MUHIM TASHABBUS MARKAZI TO'G'RISIDA**

## **NIZOM**

### **I. UMUMIY QOIDALAR**

Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Besh muhim tashabbus markazi faoliyatini tartibga solish, boshqarish va rivojlantirishga doir asosiy hujjatdir. Nizom Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (bundan buyon matnda "universitet" deb yuritiladi) Besh muhim tashabbus markazi (*matnda* – Markaz *deb* yuritiladi asosiy vazifalari, funksiyalari, faoliyatini tashkil etish tartibini, shuningdek, xodimlarining funksional vazifalari va mas'uliyatini belgilaydi.

Markaz 2016 yil 12 avgustdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 23 iyuldagi PQ-330-son qarori hamda universitet Ustaviga tayangan holda tegishli Farmonlar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Tashqi ishlar vazirligi va Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli buyruqlari, JIDU Akademik kengash qarorlari, Universitet buyruqlari, farmoyishlari va boshqa turdagi me'yoriy hujjatlarga amal qiladi.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Besh muhim tashabbus markazi (keyingi o'rinlarda "Markaz" deb yuritiladi) universitetda talabalarni yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish hamda besh muhim tashabbus g'oyasi va ahamiyatini jamoatchilik orasida keng targ'ib qilish va amalga oshirishga ko'maklashuvchi tuzilma hisoblanadi.

Besh muhim tashabbus markazi JIDU tarkibiy tuzilmalaridan biri bo'lib, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorga bo'ysunadi.

Markazning rasmiy nomlanishi:

- a) o'zbek tilida: Besh muhim tashabbus markazi
- b) rus tilida: Центр пяти важных инициатив
- c) ingliz tilida: Center of five important initiatives

## **II. BESH MUHIM TASHABBUS MARKAZINING ASOSIY VAZIFALARI**

- yoshlarni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish hamda iste'dodlarini yuzaga chiqarishga ko'maklashish;

- yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

- yoshlarga kompyuter texnologiyalaridan, internetdan samarali foydalanish madaniyatini o'rgatishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish;

- talabalar o'rtasida mutolaa va kitobxonlik madaniyatini keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni muvofiqlashtirish;

- talaba-qizlar o'rtasida mehnatsevarlik fazilatini rivojlantirish, ularni mutaxassislik doirasida foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga ko'maklashish hamda qo'shimcha kasb egallashlari yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish.

Markazga qonun hujjatlariga muvofiq besh muhim tashabbusni yanada rivojlantirish bo'yicha boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

## **III. MARKAZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

*Markaz quyidagi huquqlarga ega:*

- besh muhim tashabbus doirasida o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etadi, o'tkazadi, nazorat qiladi;

- innovator, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor va jamoatchi talabalarining nomzodini universitet rahbariyatiga qo'llab-quvvatlash uchun tavsiya etadi;

- universitet rahbariyatiga talabalarining tadbirkorlik bilan shug'ullanish bo'yicha startap loyihalarni taqdim qilish, loyihalarga investitsiya kiritish bo'yicha taklif beradi;

- xorijiy tillarni bepul o'rgatishni yo'lga qo'yish, munozara bahslarini xorijiy tilda tashkil etishda yordam ko'rsatadi;

- universitetda "Tashabbuskor talaba" tanlovini o'tkazadi va g'oliblarni rag'batlantirishga tavsiya etadi.

- tashabbus doirasidagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda faollik ko'rsatgan talabaning ota-onasi nomiga minnatdorchilik xatini yo'llaydi.

- faol talabalarni universitetda tashkil etiladigan respublikamiz hududlari bo'ylab turistik sayohatga, madaniy dam olish maskanlariga yuborish uchun tavsiya etadi.

- markaz qoshida tashkil etilgan to'garaklarning ish samaradorligi va natijadorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida moddiy va tashkiliy jihatdan yordam berish bo'yicha takliflar kiritadi;

- hamkorlikda olim, shoir va yozuvchilar bilan ilmiy, ijodiy uchrashuvlar, davra-suhbatlarini tashkil qiladi.

*Markaz quyidagi majburiyatlarga ega:*

- besh muhim tashabbusning yo'nalishlarini rivojlantirish, targ'ib qilish va ommalashtirish bilan bog'liq barcha faoliyatni tartibga soladi, muvofiqlashtiradi.

- besh muhim tashabbus doirasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha topshiriq va ko'rsatmalarning to'liq va sifatli ijrosini ta'minlaydi.

- o'quv yilining har yarim yilligida Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda Akademik kengashga amalga oshirgan ishlar yuzasidan axborot taqdim etadi.

- markaz faoliyatini samarali tashkil qilishning turli shakl va uslublarini muhokama qiladi va amaliyotga tatbiq etadi.

- besh muhim tashabbus yo'nalishlari bo'yicha dastur, yo'l xaritasi, ish rejasi ishlab chiqadi.

Markaz qonun hujjatlariga hamda o'z vazifalariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **Besh muhim tashabbus markazi boshlig'iga qo'yiladigan talab va majburiyatlar:**

– Markaz faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish;

– xodim lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish ishlarini muvofiqlashtirish va ushbu faoliyatga uslubiy rahbarlik qilish;

– zarur ixtisoslik va malakaga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar berish;

– xodimlarning mehnat va ijro intizomiga, ichki mehnat qoidalariga amal qilishlarini nazorat qilish hamda yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob berish;

– markazning nomenklaturasiga oid hujjatlarini saqlanishi va yuritilishini nazorat qilish;

– yuklatilgan vazifalarning samarali va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

– faoliyatni tartibga solish bo'yicha nizom va yo'riqnomalarni tayyorlash, tasdiqlatish va buyruq loyihalarini tayyorlash;

– Akademik kengash, Ma'naviyat va ma'rifat kengashida faoliyatni takomillashtirishga oid takliflarning muhokama etilishini ta'minlash;

– besh muhim tashabbus yo'nalishlariga oid JIDU buyruqlari, Akademik kengash va Ma'naviyat va ma'rifat kengashi qarorlarining ijro etilishini nazorat qilish;

– faoliyat bilan bog'liq kelib tushadigan hujjatlarning ijrosini nazorat qilish hamda turli tashkilotlarga yuboriladigan xat loyihalarini tayyorlash;

– ijobiy natijalarga erishgan professor-o'qituvchi, xodim va talabalarni rag'batlantirish bo'yicha Universitet rahbariyatiga takliflar berish.

#### **IV. MARKAZ RAHBARI VA XODIMLARINING MALAKA TALABLARI**

##### **4.1. Markaz rahbari:**

Markaz rahbari – Markazning umumiy faoliyatiga rahbarlik qiladi.

- Yoshlar ishlari ofisi bilan hamkorlikda universitetning ma'naviy-ma'rifiy ishlar ishlari rejasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun rahbariyatga taqdim etadi;
- har oyda bir marta o'tkaziladigan kengaytirilgan yig'ilishni tashkil etadi;
- besh muhim tashabbus doirasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha koordinatorlar tomonidan ilgari surilgan taklif va tavsiyalarni umumlashtiradi;
- universitetning besh muhim tashabbus ishlari yillik rejasini tuzadi va uning bajarilishini nazorat qiladi;
- besh muhim tashabbus bo'yicha koordinatorlar rejasini umumlashtiradi va bajarilishini nazorat qiladi;
- topshiriqlar ijrosi yuzasidan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha majlislarda hisobotlar beradi.

##### **Bilishi kerak:**

Markaz faoliyatiga daxldor bo'lgan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim sohasiga tegishli Qarorlari va Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Tashqi ishlar vazirligi va Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining Hay'at qarorlari, tegishli buyruqlari, universitet Ustavi va Ichki tartib qoidalarini va boshqa lokal hujjatlarning mazmun-mohiyatini bilishi talab qilinadi.

##### **Malaka talablari:**

- oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv lavozimida zarur bo'lgan kasbiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga, ta'lim sohasida rahbarlik ish tajribasi va stajiga, faoliyat turi va vakolatlari doirasida tegishli bilim va ko'nikmalarga;
- namunaviy shaxsiy fazilatlarga-intellekt, o'zaro muomalada axloqiy va nutq madaniyatiga, kompyuter dasturlaridan erkin foydalanish malakasiga ega bo'lish; yetakchilik, ijodiy qobiliyatlar, xushmuomalalik, tashkilotchilik va tashabbuskorlik qobiliyatiga, mas'uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat'iy harakat qilish, muassasa strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash xususiyatlariga;
- o'zbek, rus va chet tillaridan birini mukammal bilish;
- magistr darajasiga (oliy ma'lumotga);

– akademik ishlar bo'yicha kamida 3 yillik samarali ish stajiga ega bo'lishi talab etiladi.

PhD ilmiy darajasiga ega bo'lgan, xorijda ta'lim olgan, malaka oshirgan yoki stajirovka o'tgan nomzodlarga ustuvorlik beriladi.

#### **4.2. Markaz yetakchi mutaxassisi:**

– funksional vazifalarga muvofiq takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli ishlab chiqilishi, ishonchliligi va o'z vaqtida tayyorlanishi hamda funksional vazifalarga muvofiq topshiriqlar va qabul qilingan hujjatlarning bajarilishini ta'minlanishi uchun javob beradi;

– besh tashabbus yo'nalishlari bo'yicha rejalarining va boshqa zarur hujjatlarning loyihalarini tayyorlashda bevosita ishtirok etadi;

– yillik rejada belgilangan tadbirlar o'tkazilishida ishtirok etadi;

– amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etadi.

#### **Bilishi kerak:**

o'z faoliyatiga taalluqli nizomlar, yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlarni, ichki tartib-qoidalarni, me'yoriy hujjatlarini bilishi zarur.

#### **Malaka talablari:**

– o'zbek, rus va chet tillaridan birini mukammal bilish;

– namunaviy shaxsiy fazilatlariga-intellekt, madaniyatli, ijodiy qobiliyatlar, xushmuomalalik, tashabbuskorlik, harakatchanlik va mas'uliyat hissiga hamda axborot texnologiyalaridan ish jarayonida foydalana olish malakalariga ega bo'lishi;

– bakalavr darajasiga (oliy ma'lumotga);

– sohaga oid axborot va ma'lumotlardan xabardor bo'lishi zarur.

Magistr darajasiga ega bo'lgan, xorijda ta'lim olgan, malaka oshirgan yoki stajirovka o'tgan nomzodlarga ustuvorlik beriladi.

### **V. Yakunlovchi qoidalar**

5.1. Markaz xodimlarining mehnatiga haq to'lash va moddiy-texnika ta'minoti Universitet tomonidan belgilanadi.

5.2. Ushbu nizom tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5.3. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish JIDU Ma'naviyat va ma'rifat kengashining qaroriga asosan amalga oshiriladi.